

O‘ZBEKISTONDA XO‘JALIK YURITISH KLASTERLARINI BARPO ETISH BO‘YICHA BA’ZI KONSEPTUAL TAVSIYALAR

Xoliqov Davlat Raxmatilla O‘G‘Li

Jizzax Politexnika instituti “Muhandislik va kompyuter grafikasi”
kafedrası assistenti

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining real sektorlari sanalgan qurilish, sanoat va agrosanoat tarmoqlarida xo‘jalik yuritish klasterlari negizida ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish bosqichlari, shuningdek, mazkur tarmoqlarning xo‘jalik klasteri doirasidagi yagona tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xo‘jalik yuritish klasterlari, kooperatsiya, tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhiti, yagona konsepsiya, diversifikatsiya, sho‘ba korxonalar, xorijiy sarmoya, konsorsiumlar, ishlab chiqarish segmentlari, monitoring yuritish, bozor tamoyillari.*

Аннотация: *В статье рассмотрены этапы развития производственной кооперации на базе хозяйственных кластеров в строительной, промышленной и агропромышленной отраслях, являющихся реальными секторами национальной экономики, а также развитие единой системы этих отраслей в рамках хозяйствующих кластеров.*

Ключевые слова: *Хозяйствующие кластеры, кооперация, предпринимательство, бизнес-среда, единая концепция, диверсификация, дочерние компании, иностранные инвестиции, консорциумы, производственные сегменты, мониторинг, рыночные принципы.*

Abstract: *The article considers the stages of development of industrial cooperation on the basis of economic clusters in the construction, industrial and agro-industrial sectors, which are real sectors of the national economy, as well as the development of a unified system of these industries within economic clusters.*

Keywords: *Business clusters, cooperation, entrepreneurship, business environment, single concept, diversification, subsidiaries, foreign investment, consortia, production segments, monitoring, market principles.*

O‘zbekistonda xo‘jalik yuritish klasterlarini tashkil etish, ularning faoliyat yuritishini ta‘minlash va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda xo‘jalik yurituvchi boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligini tartibga solish, mulk huquqlarini himoya qilish bo‘yicha huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lib, ular tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhitining hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Turli faoliyatga ixtisoslashgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xo‘jalik klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasining asosiy yo‘nalishlari ushbu

jarayonlarni kengaytirish va chuqurlashtirish yagona konsepsiyaga asoslanishi kerak.

Turli faoliyatga ixtisoslashgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xo‘jalik klasteri doirasidagi yagona tizimini rivojlantirish, bir tomondan, kichik biznesni yanada taraqqiy ettirish va, ikkinchi tomondan, ularning ishlab chiqarish kooperatsiyasi jarayonlarini rivojlantirishga faol ko‘maklashish yo‘li bilan ta‘minlanadi. Korxonalar faoliyatini diversifikatsiyalash (qayta tarkiblash) chog‘ida xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilishi kerak.

Xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi bevosita o‘zaro hamkorlik natijasida quyidagilarni ta‘minlash mumkin: sho‘ba korxonalarini tashkil etish, yirik korxonalar tarkibidan kichik korxonalarini ajratish, qo‘shma korxonalarini tuzish (xorijiy sarmoyalar ishtirokida va ularsiz); kooperativlar tuzish (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish). Xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi bilvosita o‘zaro hamkorlikning rivojlanishi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning quyidagi sohalardagi faoliyatini kengaytirishga imkon beradi: pudrat asosida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish; yuridik shaxsni tashkil etmasdan konsorsiumlar tuzish; mahsulot, ishlar va xizmatlarni sotuvchi dilerlar bilan xo‘jalik yuritish klasteri doirasida o‘zaro hamkorlik qilish; ishlab chiqarishga texnik va maxsus xizmatlar ko‘rsatish; kichik korxonalar xodimlarini yirik firmalarning kurslarida o‘qitish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish uchun yirik korxonalar tomonidan istiqbolsiz bo‘linmalarning sotilishi.

Turli faoliyatga ixtisoslashgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xo‘jalik klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish bosqichlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasi asosida rivojlanishi maqsadga muvofiq bo‘lgan ishlab chiqarish segmentlarini tanlab olish va ularni tahlil qilish;

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi o‘zaro hamkorlik va ishlab chiqarish kooperatsiyasi bo‘yicha talab va takliflarini o‘rganish;

- ishlab chiqarishning maqsadli segmentlari bo‘yicha xo‘jalik yuritish klasteri doirasida o‘zaro hamkorlik va ishlab chiqarish kooperatsiyasining maqbul shakllarini tanlash;

- xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasining shakllarini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish;

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasi bo‘yicha monitoring yuritish va ushbu jarayonlarni samarali rivojlantirish choralarini amalga oshirish.

Iqtisodiyotning sanoat tarmog‘ida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xo‘jalik klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- korxonalar xo‘jalik faoliyatini diversifikatsiyalash (qayta tarkiblash) yo‘li bilan ular tarkibidan yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalarni chiqarish hamda, ushbu funksiyalarni bajarish bo‘yicha xo‘jalik yuritish klasteri doirasida kichik bo‘linmalarni tashkil etish;

- asosiy ishlab chiqarishning yuqori texnologiyalarini ta‘minlovchi qo‘shma korxonalar faoliyatini kengaytirish;

- tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishga ixtisoslashgan korxonalar bilan xo‘jalik klasteri doirasida o‘zaro hamkorligini takomillashtirish.

Agrosanoat majmui xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarining xo‘jalik klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasini tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga xo‘jalik klasteri doirasidagi xizmatlar ko‘rsatuvchi kichik korxonalarining qo‘shimcha tarmog‘ini tashkil etish;

- fermer va dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan meva-sabzavot va go‘sht-sut mahsulotlarining kamida 50 foizini xo‘jalik klasteri doirasidagi qayta ishlovchi yangi korxonalarini tashkil etish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi dilerlar bilan xo'jalik klasteri doirasida o'zaro hamkorlikni takomillashtirish.

Qurilish sohasidagi turli faoliyatga ixtisoslashgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xo'jalik klasteri doirasidagi o'zaro hamkorligi va ishlab chiqarish kooperatsiyasi masalalarining hal etilishi quyidagilarga asoslanishi kerak:

- qurilish ishlarining (ayniqsa yakka (individual) sektordagi qurilish-montaj ishlarining) noqonuniy ishlarini bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- qurilish majmui korxonalarini bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun bozor tamoyillariga asosan kelishilgan narxlarda haq to'lanishiga rioya qilish ;

- yirik qurilish korxonalarida pudrat asosida qurilish va ta'mirlash-tiklash ishlari umumiy hajmining kamida 30 foizining bajarilishini ta'minlovchi xo'jalik klasteri doirasidagi kichik korxonalarining qo'shimcha tarmog'ini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хайман Д.Н. Современная микроэкономика: анализ и применение. М. Финансы и статистика, 2002.

2. Хикматов А.Х., Шепелев В.М. Некоторые аспекты осуществления экономической реформы в Узбекистане. Общественные науки в Узбекистане, 2007. № 3-4.

3. Хоскинг А. «Курс предпринимательства: Практическое пособие». М.: Международные отношения, 2003.